



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМДА МУСИҚАНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ ВА ПЕДАГОГНИНГ РО'ЛИ.

*Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi, Guliston davlat pedagogika
instituti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi
e-mail: abduvaxobova996@gmail.com*

Аннотация: Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tizimida musiqaning bolalar rivojlanishidagi o'rni, uning tarbiyaviy va estetik ahamiyati, shuningdek pedagogning bu jarayondagi roli tasvirlanadi va ochiqlanadi. Musiqa mashg'ulotlarining bolalar tafakkuri, nutqi, hissiyoti va ijodkorligiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada musiqiy faoliyatni tashkil etishning sanarali usullari va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Калит со'злар: Maktabgacha ta'lim, musiqa, pedagog, estetik tarbiya, ijodkorlik, musiqiy o'yin, rivojlanish, ta'lim jarayoni.

ВОСПИТАТЕЛЬНОЕ ЗНАЧЕНИЕ МУЗЫКИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ И РОЛЬ ПЕДАГОГА.

Аннотация: В статье описывается и обосновывается роль музыки в развитии детей в системе дошкольного образования, её воспитательное и эстетическое значение, а также роль педагога в этом процессе. Анализируется влияние занятий музыкой на мышление, речь, эмоции и творческие способности детей. В статье также представлены подробные методики и практические рекомендации по организации музыкальной деятельности.



Ключевые слова: Дошкольное образование, музыка, педагог, эстетическое воспитание, творчество, музыкальная игра, развитие, образовательный процесс.

THE EDUCATIONAL IMPORTANCE OF MUSIC IN PRESCHOOL EDUCATION AND THE ROLE OF THE TEACHER.

Abstract: This article describes and explains the role of music in the development of children in the preschool education system, its educational and aesthetic value, as well as the role of the teacher in this process. The impact of music classes on children's thinking, speech, emotions and creativity is analyzed. The article also presents detailed methods and practical recommendations for organizing musical activities.

Keywords: Preschool education, music, teacher, aesthetic education, creativity, musical play, development, educational process.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Chunki aynan shu davrda bolaning shaxsiy fazilatlarini, qiziqishlarini, his-tuyg'ularini va ijodiy salohiyatini shakllanadi. Shu jarayonda musiqa san'ati o'zining o'ziga xos tarbiyaviy qudrati bilan alohida o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim bu inson shaxsining shakillanishida poydevor bosqichdir. Shu davrda bola atrofdagi dunyoni his qila boshlaydi, go'zalliklarga oshiqadi o'zining fikrlarini ifoda etishni hohlaydi. Musiqa bolalarga quvonch, ishonch va ruhiy dalda osoyishtalik beradi. U nafaqat eshtish his qilish balki nutqni, harakat va hissiy muvozanatini ham rivojlantiradi. Shu sababli har bir maktabgacha ta'lim muassasida musiqa tarbiyasi o'qituvchining ajralmas qismi bo'lib qaraladi.



Musiq — bu bola ruhiy olamiga eng tez kirib boruvchi, uni yumshatuvchi va ijobiy yo‘nalishga yo‘naltiruvchi vositadir. U nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki bola shaxsining aqliy, ma‘naviy va axloqiy kamolotini ta‘minlaydi. Shu sababli har bir maktabgacha ta‘lim muassasasida musiqa mashg‘ulotlari ta‘lim-tarbiyaning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Asosiy qism. Musiqa mashg‘ulotlari bolalarda

- Eshitish madaniyatini
- Ritmik sezgirlikni
- Ijodiy fikirlashni
- O‘z fikrini ifoda etish qobiliyatini
- Milliy qadriyatlar ba estetik didni rivojlantiradi.

Musiqa orqali bola his tuyg‘ularini ifoda etadi,jamoa bilan ishlashni o‘rganadi barcha boxchadagi do‘stlari bilan yaxshi ritmik hisni diqqat bilan anglaydi.

1. Musiqa mashg‘ulotlarining tarbiyaviy ahamiyati

Musiqa darslari bolaning nafaqat eshitish qobiliyatini, balki his-tuyg‘ularini, nutqini va harakat koordinatsiyasini ham rivojlantiradi. Qo‘shiq aytish, ritmik harakatlar bajarish, musiqa tinglash jarayonida bola o‘z hissiyotini ifoda etadi, bu esa ruhiy sog‘lomlik va ijobiy kayfiyatni shakllantiradi.

Shuningdek, musiqiy o‘yinlar orqali bolalar o‘zaro hamkorlikni, jamoa bilan ishlashni, intizom va mas‘uliyatni o‘rganadilar.

Masalan, “Qo‘g‘irchoqlar raqsi” yoki “Qaldirg‘ochlar uchmoqda” kabi qo‘shiqlar bolalarda tabiatga mehr, go‘zallikni his etish, mehnatsevarlik va do‘stlik fazilatlarini tarbiyalaydi.

2. Pedagogning roli va mas‘uliyati



Musiqa mashg'ulotlarini samarali o'tkazish bevosita musiqi rahbari yoki tarbiyachi-pedagogning mahoratiga bog'liq. U quyidagi yo'nalishlarda faoliyat yuritadi:

Bolalarning musiqiy qobiliyatini aniqlash va rivojlantirish (ritmni his qilish, tovushni ajratish, qo'shiq kuylash).

Musiqa orqali tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish (milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, mehr-oqibat).

Bolalarda ijodkorlikni rag'batlantirish (o'zi qo'shiq to'qish, qo'shiqqa harakat o'ylab topish, musiqiy asboblarda chalish).

Musiqa mashg'ulotlarini fanlararo bog'liqlikda tashkil etish (musiqi bilan harakat, rasm, hikoya tuzish, so'z boyligini kengaytirish).

Pedagog bolalarning yosh xususiyatini hisobga olib, har bir mashg'ulotni o'yin shaklida, quvonchli muhitda o'tkazishi kerak. Shunda bola musiqani "dars" emas, balki "zavq manbai" sifatida qabul qiladi.

3. Musiqi orqali bolada estetik didni shakllantirish

Musiqa — estetik tarbiyaning eng qudratli vositasidir. U bolaning go'zallikka bo'lgan munosabatini, his-tuyg'ularini va orzularini boyitadi. Tinglangan kuylar orqali bola tabiat tovushlarini, odamlarning kayfiyatini, hatto hayvonlarning harakatini tasavvur qila oladi. Shu tariqa, uning tasavvuri, eshitish va idrok qilish qobiliyati kuchayadi.

Pedagogning vazifasi — har bir musiqiy asarni bolaga to'g'ri tahlil qildirish, his ettirish va shu orqali estetik dunyoqarashni kengaytirishdir. Masalan, xalq qo'shiqlari, milliy raqslar, fortepiano yoki skripka asarlari yordamida milliy qadriyatlarni singdirish mumkun.

4. Musiqi mashg'ulotlarining turlari va shakllari



Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa bilan ishlashning quyidagi shakllari samarali hisoblanadi:

1. Qo'shiq kuylash mashg'ulotlari – bolalarning tovush, nafas, ritmni his qilish qobiliyatini rivojlantiradi.

2. Musiqiy-ritmik harakatlar – jismoniy faoliyatni oshiradi, harakat koordinatsiyasini mustahkamlaydi.

3. Musiqa tinglash – eshitish madaniyatini, tahlil qilish qobiliyatini shakllantiradi.

4. Bolalar musiqa asboblarda chalish – ijodkorlikni kuchaytiradi.

5. Sahna chiqishlari va bayramlar – bolalarda sahna madaniyati, jamoada o'zini tutish, ishonch va mas'uliyatni rivojlantiradi.

5. Ota-onalar bilan hamkorlik

Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa tarbiyasining samarasi ota-onalar bilan hamkorlikka ham bog'liq. Uy sharoitida musiqa tinglash, qo'shiqlar kuylash, birgalikda raqsga tushish kabi oddiy mashg'ulotlar bola uchun quvonchli bo'lishi bilan birga, oiladagi ijobiy muhitni mustahkamlaydi.

Pedagog ota-onalarga musiqa bolalar rivojlanishidagi ahamiyatni tushuntirib, ularni bu jarayonga faol jalb etishi kerak. "Musiqa haftaligi", "Ijod kuni" kabi tadbirlar bunday hamkorlikni yanada mustahkamlaydi.

Xulosa

Maktabgacha ta'lim tizimida musiqa — bola shaxsini har tomonlama rivojlantiruvchi, tarbiyaviy va estetik jihatdan boyituvchi muhim vositadir. U orqali bola quvonchni, go'zallikni, mehrni his etadi, o'z fikrini ifoda etishni o'rganadi. Shu



boisdan pedagoglar musiqiy tarbiya jarayonini puxta tashkil etishlari, uni o‘yin, ijod va his-tuyg‘ular uyg‘unligida olib borishlari zarur.

Musiqa pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida, kelajak avlodda milliy qadriyatlar, ijodkorlik, estetik did va madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
2. Karimova Z. “Maktabgacha ta’limda musiqiy tarbiya asoslari”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Mirzayeva G. “Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berish metodikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
4. G‘ulomova M. “Bolalar ijodiy rivojlanishida musiqaning o‘rni”. – Ilm sarchashmalari jurnali, 2022.
5. Vygotskiy L.S. “Bola psixologiyasi va ijodiy rivojlanish nazariyasi”. – Moskva, 1984.